

SHERZOD SOBIROVNING “FANTAZIYA” ASARI: NAY BA XALQ CHOLG’ULARI ORKESTRI UCHUN KONSERT JANRI VA KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy
musiqqa san’ati inistituti 2-kurs magistranti

To‘rayeva Gulnoza

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek kompozitori Sherzod Sobirovning nay va xalq cholg’ulari orkestri uchun yozilgan “Fantaziya” asari musiqiy-tahliliy jihatdan o‘rganiladi. Asarda fantaziya janrining erkin shakllilik tamoyillari, uch qismli dramaturgik tuzilishi hamda obrazlar rivojining mantiqiy izchilligi tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida asarning muqaddima, asosiy qism va repriza bo‘limlaridagi shakl, ritm, faktura, dinamika va tembr xususiyatlari ochib beriladi. Nay cholg’usining yakkaxon ifodaviy imkoniyatlari, uning orkestr bilan konsertlilik va dialogik munosabati, shuningdek, polifonik elementlar va qatlamlashgan faktura vositasida musiqiy dramatismning kuchayishi yoritiladi. Maqolada asarning musiqiy tili, mavzu shakllanishi va rivoji Asafiyevning intonatsion-mantiqiy tafakkur qonuniyatlari asosida izohlanib, Sherzod Sobirov ijodida milliy kuy intonatsiyalarining zamonaviy kompozitsion yechimlar bilan uyg’unlashuvi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Аннотация: В данной статье проводится музыкально-аналитическое исследование произведения «Фантазия» для нея и оркестра народных инструментов современного узбекского композитора Шерзода Собирова. В работе анализируются принципы свободной формообразующей природы жанра фантазии, трёхчастная драматургическая структура произведения, а также логическая последовательность развития образов. В ходе исследования раскрываются особенности формы, ритма, фактуры, динамики и тембра во вступлении, основной части и репризе. Освещаются выразительные возможности нея как сольного инструмента, его концертно-диалогические

отношения с оркестром, а также усиление музыкального драматизма за счёт полифонических элементов и многослойной фактуры. Музыкальный язык произведения, формирование и развитие тематического материала рассматриваются на основе законов интонационно-логического мышления Б. Асафьева, что позволяет научно обосновать синтез национальных интонаций с современными композиционными решениями в творчестве Шерзода Собирова.

Abstract: This article presents a musical and analytical study of the work “Fantasia” for ney and folk instrument orchestra by the contemporary Uzbek composer Sherzod Sobirov. The study examines the principles of free formal organization inherent in the fantasia genre, the three-part dramaturgical structure of the composition, and the logical continuity of thematic and imagery development. The research reveals the characteristics of form, rhythm, texture, dynamics, and timbre in the introduction, main section, and reprise. Particular attention is given to the expressive potential of the ney as a solo instrument, its concertante and dialogic interaction with the orchestra, as well as the intensification of musical dramaturgy through the use of polyphonic elements and layered texture. The musical language of the composition, along with the formation and development of thematic material, is interpreted based on B. Asafyev’s principles of intonational-logical musical thinking, thereby providing a scholarly justification for the synthesis of national melodic intonations with contemporary compositional techniques in Sherzod Sobirov’s creative work.

Kalit so‘zlar: Fantaziya janri, nay, xalq cholg‘ulari orkestri, Sherzod Sobirov, musiqiy shakl, dramaturgiya, faktura, polifoniya, tembr, konsertlilik, milliy musiqiy intonatsiya.

Ключевые слова: Жанр фантазии, ней, оркестр народных инструментов, Шерзод Собиров, музыкальная форма, драматургия, фактура, полифония, тембр, концертность, национальная музыкальная интонация.

Keywords: Fantasia genre, ney, folk instrument orchestra, Sherzod Sobirov, musical form, dramaturgy, texture, polyphony, timbre, concertante style, national musical intonation.

Fantaziya— bu an'anaviy musiqiy shakllardan erkin bo'lgan, ijodiy tasavvurga asoslangan musiqiy janrdir. U asosan bastakorning ichki his-tuyg'ulari va tasavvurlarini erkin ifodalashiga xizmat qiladi. Fantaziya odatda qat'iy musiqiy tuzilmaga (masalan, sonata yoki rondo shakliga) bo'ysunmaydi.

U ko'pincha biror tasavvur, syujet, tabiat manzarasi yoki ruhiy holatni tasvirlashga intiladi va ba'zida improvizatsiyaga o'xshab ketadi, go'yoki musiqachi shu zahoti kuylayotganidek tuyuladi.

Asar muqaddima mavzusi lirik- tragedik, mayin, o'ychang harakterda bo'lib, 21 takti o'z ichiga oladi. 1-6 taktlar lirik harakterda bo'lsa, 7-taktdan 21- taktgacha qayg'uli tragedik harakterda ifodalangan. Kirish qismi 4/4 o'lchov, andante tempida yozilgan. O'ychang ohangli mavzu qonun chog'usida ifodalangan bo'lsa, iztirob va dard tuyg'ularini aks ettiruvchi nolali ohang nay cholg'usining o'ziga xos tembr imkoniyatlari orqali yoritiladi. G'ijjaklar oilasi mi tovushida organ punktda va yirik cho'zimda muqaddima boshidan oxirigacha ushlab turadi, qolgan cholg'ular esa pauza orqali sukut saqalab turishadi. Muqadimma boshida murakkab bo'lmagan ritmik bo'linishlar va cho'zimlardan foydalanilgan. 7- taktdan esa nay (solo) qonun sozidagi lirik mavzuning varianti yangraydi.

Odatda klassik asarda uch qismlilikning dramaturgik tomondan taqsimlanishi kontrastlikka asoslanishi oddiy hol. Ushbu fantaziya ham uch qismlilikni obrazli dunyosining xarakterli jihatidan quyidagicha tasvirlash mumkin:

1-qism

2-qism

3-qism

raqsiy

lirik-tragedik

raqsiy

1- qism 1-sifrdan ifodalansada.u bog'lovchi vazifasidek (predikt) kelib, mantiqan esa 2-sifr "Allegro" tempi , 6\8 o'lchovida boshlanadi. 1-qism piano dan forte ga zudlik bilan o'tib, zarbli sadolar ostida chang, qonun, dutor prima va dutor alt cholg'ularida

sakkiz taktli tanatanavor ruhdagi ritmik harakatlardan so'ng solo raqsli ohanglar bilan kirib keladi. Musiqa cholg'ular olami orasida nay sozi odatda nolali, dardli, o'ychang tasavvurlarni tasvirlashda ko'proq qo'llanilganini guvohi bo'lganmiz ammo bu asarda kompozitor mohirlik bilan bu cholg'udan foydalanganki undan taralgan kuy, chopqillab boruvchi ritmik harakat va ohang insonni raqsga chorlab yuboradi. Bu qismda ko'proq konsertlilik xususiyati mavjud bo'lib, nay bilan orkestr galma gal raqobatlashishadi. Bu huddiki raqsdagi duetga o'xshadi.



Asarning musiqiy tili haqida so'z yuritilganda unda turli musiqiy ifoda vositalarining chambarchas bog'lanib kompozitining o'ziga xos uslubini hosil etganini ko'rishimiz mumkin. Musiqiy til- musiqiy ifoda vositalarining jamlanmasidir. Unga albatta u yoki bu uslub xosdir. Va aksincha, barcha uslub faqat o'ziga xos xarakterli musiqiy tilda ifoda etiladi. Ya'ni ular o'xshash bo'lsa ham ularning tushunchalari bir emas.

Mavzu tushunchasi chuqur dialektik harakterga ega va u bir vaqtning o'zida bir tomondan o'ziga yetarli darajada aniq obrazga ega bo'lib, ikkinchi tomondan dinamik kuchli elementdir. Mavzuda turli turtki va tasdiqlov mavjud va u harakat energiyasini o'zida jamlab uning harakteri, yo'nalishini aniqlaydi. Ammo o'zining asosiy xususiyatiga ya'ni relyeflikka qaramay mavzu turli keskin o'zgarish qobiliyatiga egadir, uning funksiyalari kontrastlikdir. Mavzu shakllanishida bir tomondan o'zini inkor etuvchi obrazlarni chaqirsa, ikkinchi tomondan ularga qarama-qarshi tarzda o'zini tasdiqlaydi¹

1-qism mavzuning vujudga kelishida Asafiyevning "IMT" qonuniyati bo'yicha impuls sifatidagi "Allegro" tempida major ohangida ko'rishimiz mumkin.


¹Е.Ручьевская "Функции музыкальной темы" Л. 1977 й.

Kuyning yuqoriga va pastga to'liqsimon harakati esa butun qism mobaynida rivojlanib boradi. Faktura jihatdan olganda ushbu qismda bir turlilikni (gamafon-garmonik) ajratishimiz mumkin. Nay sozidagi sinkopali harakat monodiyani ifodalasa, bir vaqtning o'zida orkestr ya'ni g'ijjaklar oilasi sekvensiyali harakat bilan rubob va dutor oilasi kvartali akkordlar bilan garmonik harakat bilan bog'lanadi. Keyinchalik esa orkestr partiyasida aksentli urg'ular ham solo partiyasi mavzuni o'zgartirib bir qancha o'zgartirishlar bilan 65-72 taktlarda nay, chang va g'ijjaklar oilasida takrorlaydi. Bu fakturaning yanada chuqurlashuvini va uning proyeksiyasini kengayishini hosil etadi va shu o'rinda Xolopovaning faktura haqidagi tushunchasini keltirishimiz mumkin: "...musiqiy faktura²- (lotincha facture-qilyapman) musiqiy mantnning bayon etish usuli bo'lib, kuy, garmoniya, ritm birligida namoyon bo'ladi. Faktura musiqiy tovush, ohanglar orqali fazoviy sohani to'ldiradi.

2-qism 7-sifr $\frac{3}{4}$ o'lchov **mp** da 4 taktili musiqiy bayondan so'ng, sokin, o'ychang chayqalib boruvchi sadolar ostida **mf** da nay altda kirib keladi.



Epizod mavzusi butun qism mobaynida kuyning shakllanishi sakrashlarsiz sekunda intervali bo'ylab harakat qilib boradi. Bu harakat 10-sifrgacha davom etib, undan so'ng mavzu orkestr partiyasi (nay, qo'shnay, chang, qonun)ga o'tadi. Musiqiy material chang va qonun sozlarida goh pog'onama pog'ona, goh sakrama to'liqli harakatlar bilan o'sib boradi.



² В.Н.Холопова "Фактура" Санкт-Петербург 2002 й.



Solo va goboy cholg'ulari mavzusi qisman o'xshash bo'lib, unda asosan cho'zim va musiqiy bayon harakat yo'nalishi nazarda tutishimiz mumkin. Undan tashqari bu sifrdan polifonik elementlarni (nay alt - mavzu, goboy- qarshi tuzilmani) ham ko'rishimiz mumkin. 10-sifrdan chang va qonun glissando bilan kirib kelib, orkestr kulminatsiyaga chiqib, vazmin tempdan biroz chekingan xolda jonlanadi, ammo 11 sifrdan yana vazmin o'ychang mavzu harakteri soloda qaytib keladi.

13 sifrgacha deyarli orkestrda torli sozlar ustunlik qiladi va unda bongos sozida berilgan usul uni yanada jipslashishiga yordam beradi. 3-qism ya'ni repriza 14-sifrdan bongosning o'ziga xos quvnoq raqsimon ritmik harakat bilan boshlanadi. Bu sifrdan o'lchov 3/4 dan 6/8 ga, dinamik belgilar esa p dan f ga o'zgargan holda namoyon bo'ladi.



15- sifrdan repriza mavzusi bir oktava yuqori registrda nay da orkestr jo'rligida kirib keladi. Bunda nafaqat solo balki, orkestr ham bir oktava yuqori registrda joylashgan. 18- sifrdan butun orkestr yangrab, rubob prima va g'ijjaklar oilasi asosiy mavzuni bayon etsa, qolgan sozlar musiqiy fikrni to'ldiruvchi akkord va musiqiy elementlarni ifodalaydi. 1 – qismda ham reprizada 4 marotaba asosiy mavzuni bayon etilganini ya'ni repriza to'liq qaytarilganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda kompozitor Sherzod Sobirov bu asarda nay sozini mohirlik bilan qo'llangan holda xalq kuylarini zamonaviy ohanglari bilan moslab tinglovchilarga yetkazishga harakat qilgan. Bu musiqiy asar firki ojizimcha nafaqat

musiqiy savodxonlikka ega muhlislarga balki oddiy xalq ham sevib tinglab qabul qila oladigan asar deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi V tom. Toshkent 2003
2. Жабборов А. *Ўзбекистон композиторлари, бастакорлари ва мусиқашунослари: маълумотнома.* — Тошкент, 2018.
3. Е.Ручьевская“Функции музыкальной темы” Л. 1977 й.
4. В.Н.Холопова “Фактура” Санкт- Петербург 2002 й.